

*Urolov Orzubek*  
*O`zMU Tarix fakulteti Tarix yo`nalishi*  
*2- bosqich talabasi*  
*e- mail : [orzubekurolov06@gmail.com](mailto:orzubekurolov06@gmail.com)*  
*tel: +998 – 99 – 500 – 75 – 68*

## HISTORY AND EVOLUTION OF FEARS

**Annotation:** Fear is an integral part of human life. Fear has played a very important role in the formation of human civilization. Because man managed to survive in nature because of fear. Fear is still very important today. This article reveals the history of the formation of fear, the change of the object of fear over time, and how fear has become a weapon in the hands of people, and as a result, it reveals the aspects that motivated the formation of the ruling and legal systems that exist in the present time.

**Key words.** Fear, anthropogenesis, hierarchy, capitalism, religion, prestige management, bipolar world, Science and technology revolution, Science and technology revolution

### История и эволюция страхов

**Аннотация.** Страх – неотъемлемая часть жизни человека. Страх сыграл очень важную роль в формировании человеческой цивилизации. Потому что человеку удалось выжить в природе благодаря страху. Страх по-прежнему очень важен сегодня. В данной статье раскрывается история формирования страха, изменение объекта страха с течением времени, а также то, как страх стал оружием в руках людей, и, как следствие, раскрываются аспекты, мотивировавшие формирование правящего страха. и правовые системы, существующие в настоящее время.

**Ключевые слова.** Страх, антропогенез, иерархия, капитализм, религия, управление престижем, биполярный мир, Научно-техническая революция, Научно-техническая революция

### Qo`rqvlar tarixi va evolutsiyasi

**Annatatsiya.** Qo`rquv inson hayotining ajralmas qismi sanaladi. Inson sivilizatsiyasining shakllanishi davomida qo`rquv juda muhim o`rin tutgan. Chunki qo`rquv sababli inson tabiatda omon qolishga erishgan. Bugungi kunda ham qo`rquv katta ahamiyatga ega bo`lib qolmoqda. Mazkur maqola qo`rquvning shakllanish tarixi, davrlar mobaynida qo`rquv obyektining o`zgarishi va qo`rquvning insonlar qo`lida qanday qurolga aylanganligi, buning oqibatida hozirgi zamonda mavjud bo`lgan hukmronlik va qonun tizimlarining shakllanishiga turtki bo`lgan jihatlarni ochib beradi

**Kalit so`zlar.** Qo`rquv, antropogenez, ierarxiya, kapitalizm, din, prestij boshqaruv, ikkiqutbli dunyo, Fan – texnika inqilobi, Ilmiy – texnik inqilob

**Kirish.** Inson evolutsiyasi va antropogenez davri mobaynida insonlar deyarli tabiat bilan hamohang yashagan uni o`zgaritishga qodir bo`lmagan. Shu sababli u tabiatga shunchaki moslashishga majbur bo`lgan. Tabiiy ofatlar, yirtqichlar, zaharli o`simliklarning ta`siri va hujumlaridan omon qolishi uchun tabiat insonga qo`rquvni in`om etgan. Inson qo`rquvi natijasida jamoalarga birlashib, mehnat qurollari bilan jon saqlashga harakat qilgan. Asta – sekin insoniyat sivilizatdiyaga yuz tuta boshlagach qo`rquvni romantizatsiya qilishga erishdilar. Ya`ni insonlar qo`rquvni qurolga qylantirdi. Ibtidoiy odamlar tabiatdan qo`rqib boshlagach ular tabiat kuchlarini ilohiylashtirishga o`tadi. Natijada ibtidoiy dinlar vujudga kelgan edi. Sivilizatsiya natijasida shakllangan ilk davlatlar esa bundan unumli foydalanishga erishdi. Shakllanayotgan davlatlar natijasida dunyo tartiblarining o`zgarishi va zamonaviy hayotimizda tutgan o`rnini tarixiy jihatlarni ko`rib chiqishga bag`ishlanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Qo`rquv va insonlarning qo`rquvga bo`lgan munosabatini jamiyatshunoslar, dinshunoslar, sotsial – antropologlar, etnopsixologlar, psixolog va biologlar tomonidan o`rganilib

borilgan. Mazkur mavzuni tibbiy – biologik usulda tadqiq etgan Kaliforniya texnologiya instituti, Gumanitar va ijtimoiy fanlar bo'limi Ralf Adolfsning “ The Biology of Fear ” ( “ Qo'rquv biologiyasi ” ) ilmiy maqolasi, shuningdek Xillari L. Lenfesti va Tomas J.H.Morganning “ By Reverence, Not Fear: Prestige, Religion, and Autonomic Regulation in the Evolution of Cooperation ” ( “ Qo'rquv emas, hurmat bilan: obro' Din va avtonom tartibga solish hamkorlik evolyutsiyasi ” ) ilmiy tadqiqot maqolasi, shu bilan birga umumiy antropogenezga oid Rajabov. R.ning “ Ibtidoiy jamoa tarixi ” , Bababekov.A. va Muminov. O. muallifligidagi “ inson evolyutsiyasi va old tarix ” risolalari ham tadqiqot uchun muhim adabiyotlar sanaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ishi jamiyatshunoslar, sotsial antropologlar va etnopsixologlar tomonidan so'rovnoma o'tkazish, jamiyatning kayfiyatini eshitish bilan, shuningdek san'at, adabiyotdagi davr muhitini o'rganish orqali ham olib borilgan. Bu esa qo'rquvlar evolyutsiyasini o'rganish imkonini bergan

**Tahlil va natijalar.** Insonlarda qo'rquv har doim bo'lgan . odamlar hamma narsada qo'rqan, hayvonlar, hashoratlar, tabiat kuchlaridan, olovdan, suvdan va barcha jamiki narsalarning baridan qo'rqanlar. Avvaliga biz "qo'rquv" ning tezkor ta'rifiga muhtojmiz. Qo'rquv kontekstga bog'liq bo'lgan stimullar to'plami va xatti-harakatlarning ketma-ketligi o'rtasidagi o'zgaruvchan o'zgaruvchanlikdir. Uning foydaliligi tushuntirishdir va boshqa psixologik, hatto neyrobiologik holatlar bilan har qanday yozishmalarga agnostik munosabatda bo'lish mumkin. Bunday o'zgaruvchi shaxsning o'zida izchil qadriyatlar to'plamini olishi mumkin va odamlar o'rtasida tizimli ravishda farqlanadi, bu uni shaxsiy xususiyatga nomzod qiladi. Bu genotipning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, hech bo'lmaganda qisman, uni endofenotipga nomzod qiladi [1]. Chunki ularning ushbu narsalarga yetadigan kuchi bo'lmagan. Ushbu qo'rquv tuyg'usi odamlarning yovvoyi tabiatda omon qolish imkonini beradi. Ibtidoiy zamonlarda odamlar qo'rquvi juda primitiv narsalarda ham namoyon bo'lgan [2]. Insonlar hamma narsadan qo'rqishi, ularning bu narsalardan o'zligiga bo'lgan ishonch ibtidoiy dinlarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Bir guruh dinshunos olimlar tomonidan insoniyat qo'rquvni anglab yetmunga qadar dinsiz yashagan degan fikrni olg'a surdi. XIX asrda yashab o'tgan nemis dinshunos olimi Maks Myuller dinning filologik nazariyasini ilgari surib din materialistik tushuncha va u odamzodning qo'rquvi natijasida paydo bo'lganligi, insoniyat qo'rquvi borliqni oliy kuchlar boshqarishiga ishonishi sabab bo'lganligiga ishona boshlagan davrdan boshlangan degan xulosaga keladi. Bu – dinning tarixiyliigi masalasi bolib, unga ikki xil javob berganlar. Birinchisi, qandaydir muddat insoniyat dinsiz yashagan va jamiyatning muayyan bosqichida - yuqori paleolit davrida, bundan 20— 40 ming yil avval din paydo bo'lgan ( M.Myuller tarafdorlari) [3] .

Insoniyat taraqqiy eta borgan sari qo'rquv ko'lami kengayib boradi. Insonlardagi bu qo'rquv ular yashab turgan tabiiy muhitga ham bog'liq bo'lgan. Ilk sivilizatsiyalar shakllangan Nil, Dajla, Frot daryolaridagi insonlar ham o'zi yashab turgan tabiiy muhitidan qattiq qo'rqishgan. Bu qo'rquv natijasida ular Nil, Dajla va Frot daryolarini muqaddaslashtirib ular bilan bog'liq turli afsona va rivoyatlarni shakllantirdi. Ular o'sha davr va yashab turgan muhitidan tashqariga chiqa olmaganligi sabab dunyoning yaralishi, insonlarga hayot baxsh etgan va butun dunyoning yo'q bo'lish sifatida daryolarni ko'rishgan. Bunday ishonch va qo'rquv esa jahonga mashhur afsona va haqiqatlar, masalan, To'fon rivoyati Nil daryosi bilan bog'liq afsonalar tug'ilishiga sabab bo'lgan [4].

Ilk davlatlarning shakllanishi natijasida hokimiyatlar yuzaga keladi. Hokimiyatlar esa davlatni ushlab turish va uni o'z foydasiga idora etish uchun qo'rquvdan foydalangan. Urug' jamoalarida va patriarxal jamiyatlarda hokimiyat ierarxiyasi tushunchasi bo'lgan, bu biln ular hayvonlar podasidan farq qilgan , faqat odamlarda qo'shimcha mavjud ijtimoiy ierarxiya turi: nufuzlilar mavjud bo'lgan . Mavjud ierarxiyalar esa ikki xil ko'rinishga ega edi : prestij va hukmron. Prestij ierarxiyasi har xil his-tuyg'ular va xatti-harakatlar bilan tavsiflanadi, davrilar o'tishi bilan hukmronlik ierarxiyasi shakllandi va bu jarayon prestij ierarxiyadan ko'ra davlat va hokimiyatni shakllanishiga turtki bergan. Ierarxiya tepasida barcha insonlarni birlashtiruvchi kimdir bo'lgan. Bu nufuzli shaxs edi. Nufuzli shaxs - bu kimdir

mahalliy miqyosda o‘z mahorati, bilimi yoki muvaffaqiyati uchun hurmatga sazovor qimmatli domenlar . Bunga bir nechta misollar kiradi: asbob yasash va asbobdan foydalanish; hikoya qilish, tibbiyot, pazandalik va ov qilish; marosimlar, din, odob-axloq va ijtimoiy me'yorlar bo'yicha tajriba; va boylik orttirish ko'nikmalari shular jumlasidandir . Past maqomli shaxslar ko'rsatishi mumkin obro'li shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri qarash va ularning yonida bo'lish istagi ularni qo'rquvdan saqlovchi va jon saqlash imkonini beruvchi omil deb bildilar va "imtiyozli, avtomatik va ojiz" odalar guruhini namoyish etadilar. Nufuzli shaxslarning qudrati va ularning hukmronligini oshirish esa juda muhim masala bo'lgan. Shuning uchun ierarxiyada izdoshlar tushunchasi paydo bo'ldi [5] . Izdoshlar nufuzli shaxsning hokimiyatda turishi va uni boshqarishda xalqni qo'rqitish bilan shug'ullanishgan . Natijada qadimgi kohinlar shakllangalar. Vaqtlar o'tishi bilan yirik davlatlarda kohinlar, dindorlar va ruhoniylar nufuzli shaxs sanalgan hukmdorlardan ko'proq nufuz oladi. Chunki ularda xalqni qo'rqitish quroli bore di. Aynan qo'rquv hokimiyatni ushlab turuvchi dastakka aylandi. Odamlarning tabiatdan qo'rquvini davlat hokimiyatidan va ularning kuchlari, dinlardan qo'rquvi bilan boyitib bordi. Ya'ni inson taraqqiy ea borgan sari qo'rquvdan chiqib keta olmadi, balki uni boyitib bordi. Qadimgi dunyoda asosiy qo'rquvlar politeistik dinlar yartagan xudolar, hukmdorlar va dindorlarining xudolar bilan aloqadorligi va ularning jazolovchi tizimi borligi, hokimiyatni ushlab turuvchi kuch bo'lib qoldi.

O'rta asrlarda tabiat tushunchasi bir qadar o'z o'rnini dinga bo'shatdi. O'rta asr Yevropa va Sharq olamida uch yirik dinlar , xristianlik, islom va buddizm dinlari hukmron bo'lgan jamiyatlarda yakka yaratuvchiga ishonch gunohlar qilish va oxiratdan qo'rqish tushunchalari qo'rquvni dinga to'laqonli yoydi. Shu bilan birga tasalli berishni ham o'rgatdi. Ammo rivojlangan o'rta asrlarda Yevropada dindan qo'rqishga sabab bo'luvchi voqealar yuz berdi. Salib yurishlari, inkvizitsiya kabi jarayonlar olomonning dindan qo'rqishga sabab bo'ldi. Natijada ateizm g'oyalari, reformatsiyalar va diniy urushlarni keltirib chiqardi. Fan, san'at va boshqa tushunchalar dindan ayrilib ketdi. Endi odamlarning qo'rquvi ijtimoiy munosabatlarga , kasalliklar, urushlar, ocharchilik va shu kabi masalalarga qaratildi.

Yangi davrlarga kelib G'arb dunyosida kapitalistik munosabatlar yuzaga keldi. Kapitalizm va kapitalistik munosabatlarning yuzaga kelishi odamlarda ko'proq pul topishga va ularni saqlab qolishga urinishlari, pulsizlikdan qo'rqish hissini uyg'otgan. Bu esa ayni vaqtda yangi dvoryanlar, puldorlarning hokimiyatga erishishiga turtki bergan. Bu esa moliyaviy oligarxiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Oligarxlar dunyo moliya tizimini nazorat qilishi katta natijalar olib keldi. Davlatlar foyda ortidan quvish hisobiga jahonda bir qancha yirik voqealar yuzaga keldi. Geografik kashfiyotlar, musamlaka tizimi, quldorchilik tizimi kabilar shular jumlasidandir.

Ma'rifat asri davomida insonlar huquqsizlik, ilmsizlik va eskilik tarafdori bo'lishdan qo'rqa boshlaydi. Bu esa ma'rifat asrining yuksalishiga sabab bo'ladi. Huquqsizlikdan qo'rqish va uni yo'q qilishga urinish inqiloblar, davlat to'ntarishlariga sabab bo'ldi. Eskilikdan qo'rqish esa 2 buyuk inqiloga turtki bo'ldi. Bular sanoat inqilobi va ilmiy – texnik inqilob edi. Qo'rquv quroli shunday katta kuch berdiki odamlarning hayoti bir necha karraga tezlashib ketdi[6].

Zamonaviy olamda esa qo'rquv tushunchasi mutlaqo o'zining obyektini o'zgartirib yubordi. Kapital tizimdan qo'rqish kommunizmdan, kommunizmdan qo'rqish kapital jamiyatga qaytish, ikkiqutbli dunyo o'rtasida murosasizlikni keltirib chiqardi. Endi insonlar sog'lik, tabiat kuchlari yoki diniy mansublikdan emas, siyosiy mafkura, moddiy ta'minot va urushlarda qo'rqa boshladi. Urushlardan qo'rqish davlatlarni bir – biriga qarshi qilib qo'ydi va bir – birlarini qo'rqitishga majbur qila boshladi. Buning natijasida qurollanish poygasi va yadroviy qurollar paydo bo'ldi[7].

Siyosiy mafkuradan qo'rqish oqibatida jamiyatda ateizm, shaxsga sig'inish va qatag'onlar sabab bo'ldi. Natijada anarxizm tarafdorlari yuzaga keldi. Shunday qilib qo'rquvlarning evolutsiyasi jamiyat bilan hamnafas o'zgarib boradi. Ishsizlik, inqirozlar, suiqasdlar, axborot xurujlari oqibatida qo'rquvlarning ko'lami kundan – kunga kengayib bormoqda. Odamlarda fobiyalar kuchayib yangi fobiyalar yuzaga keldi. Dindan , irqlardan, odamlardam, jamiyatdan qo'rqish tushunchalarining o'zi ham bir qancha turlarga bo'linib ketdi[8]. Bu insoniyatning sotsial antropologiyasining o'zgarishiga sabab bo'ldi.

**Xulosa.** Insoniyatda qo'rquv hissi har doim bo'lgan va ular bilan birga yuradi. Fan – texnika inqilobi davrida olimlar tabiatni anglash ularning qo'rquvlarining yo'qolishiga olib keladi deb o'ylashgan. Biroq

ularning bu versiyasi noto'g'ri bo'lib chiqdi. Inson qo'rquvdan hech qachon qutula olmas ekan va qo'rquv ular bilan doim birga bo'lishini anglab yetishdi. Bu tabiat in'om etgan instinkt shunday oqibatlariga olib keldiki, insonlar o'z aqli va qudratidan qo'rqa boshladi. Chunki insoniyat bir necha yuz yil ichida u yoki bu narsadan qo'rqib uning tag zamiriga yetishga urinishi oqibatida bir necha mingyillik siviliozatsiyalardan-da kattaroq natijalarga erishdi.

Xulosa qilib aytganda qo'rquv bu insonning omon qolishiga sabab bo'luvchi omli, uning rivojlanishi va shakllanishiga turtki bergan tabiiy instinktdir. Uning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning tadrijiy shakllanishiga bog'liq holda o'zgaradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ralph Adolfs The Biology of Fear . [www.ncbi.nlm.nih.gov](http://www.ncbi.nlm.nih.gov)
2. Rajabov. R. Ibtidoiy jamoa tarixi. T. : Fan va texnologiya – 2013 .139 b
3. .Raximdjano D.A.,Ernazarov O.K. Dinshunoslikka kirish. T. : O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati – 2018. B 17 – 18
4. Rajabov . R. Jahon tarixi : Qadimgi Sharq. T. : Yangi asr avlodi – 2018. 447b
5. Hillary L. Lenfesty and Tomas J.H.Morganning By Reverence, Not Fear: Prestige, Religion, and Autonomic Regulation in the Evolution of Cooperation . [www.frontiersin.org](http://www.frontiersin.org)
6. Эргашев.Ш. Жаҳон тарихи 1 – қисм . Т.: Ўзбекистон – 2013. 529 б
7. Эргашев.Ш. Жаҳон тарихи 2 – қисм . Т.: Ўзбекистон – 2015. 570 б
8. Эргашев.Ш. Жаҳон тарихи 3 – қисм . Т.: Ўзбекистон – 2018. 521 б